

XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK JIHATLARI

N.M.Oxunova

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15314300>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi namunalari milliy madaniyatning o'ziga xos qirralarini, urf-odat va qadriyatlarini o'zida saqlab kelishi hamda belgilangan asarlarning badiiy va axloqiy ma'nosi o'quvchilarda milliy iftixor, ma'naviy ong va axloqiy tarbiyani mustahkamlashi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, odob-axloq, qadriyat, ertak, topishmoq, maqol.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается тот факт, что образцы народного устного творчества сохраняют уникальные аспекты национальной культуры, традиций и ценностей, а художественный и нравственный смысл рассматриваемых произведений укрепляет национальную гордость, духовное сознание и нравственное воспитание учащихся.

Ключевые слова: народная литература, мораль, ценности, сказки, загадки, пословицы.

ANNOTATION

This article discusses the fact that examples of folk oral art preserve the unique aspects of national culture, traditions and values, and that the artistic and moral meaning of the works in question strengthens national pride, spiritual awareness and moral education in students.

Keywords: folklore, morality, value, fairy tale, riddle, proverb.

Xalq og'zaki ijodining ertak, maqol, topishmoq yoki doston kabi janrlari o'zida turli madaniy, tarixiy va axloqiy jihatlarni mujassam etgani sababli, o'quv jarayonida ularni qo'llash bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda rivojlanishni ta'minlaydi. Avvalo, tanlangan asarlar bilan ishlash bolalarda o'qish savodxonligini kuchaytiradi, chunki ular badiiy matnni to'g'ri idrok etish, uning mazmunini chuqurroq tushunish va so'z boyligini kengaytirish singari lingvistik mahoratlarini oshiradilar. Xalq og'zaki ijodi namunalari milliy madaniyatning o'ziga xos qirralarini, urf-odat va qadriyatlarini o'zida saqlab keladi. Belgilangan asarlarning badiiy va axloqiy ma'nosi o'quvchilarda milliy iftixor, ma'naviy ong va axloqiy tarbiyani mustahkamlaydi. Masalan, ertaklarda xavf-xatarlarga duch keladigan qahramonlarning jasorati, topishmoqlarning topqirlikni talab qilishi yoki maqollarning hayotiy tajriba va donolikka tayanishi bolada shaxsiy fazilatlar rivoji uchun zamin yaratadi.

Asarlarni tanlashdan tortib ularni dars jarayoniga integratsiyalashgacha bo'lgan bosqichlarni aniq rejalashtirish, mazkur bosqichlarni fanlararo aloqadorlik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish va eng muhimi, bu faoliyatdan kutilayotgan maqsad hamda natijalarni oldindan belgilab olish ilmiylik mezonlariga mos bo'ladi; bunda har bir asarning yosh xususiyatiga mosligi, uning o'qish, tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni kabi masalalarga ilmiy-nazariy yondashish muhim hisoblanadi [30].

Fanlararo aloqa ta'lim jarayonida murakkab, ammo boy imkoniyatlarni yaratadi, chunki xalq og'zaki ijodiga mansub ertak, maqol, topishmoq yoki dostonlardagi voqea va obrazlarni

boshqa fanlar bilan uzviy bog'lab o'rganish o'quvchilarning keng qamrovli tafakkurini shakllantiradi. Masalan, ertakdagi voqealarni tushinishda ayrim matematik hisob-kitob elementlaridan foydalanish o'quvchilarda bir vaqtning o'zida badiiy matnni tahlil qilish va aniq fanlardagi ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini beradi. Tabiatshunoslik bilan uyg'unlashtirish orqali esa ertaklarda yoki maqollarda esga olingan tabiat hodisalari, hayvonlar va o'simliklar haqidagi ma'lumotlar kengaytiriladi hamda o'quvchilarning ilmiy tafakkurini mustahkamlaydi va ularni atrof-muhitni qadrlashga o'rgatadi.

Musiq va tasviriy san'at darslarida xalq ijodidagi badiiy lirik ohanglar, voqealarga xos ijodiy atmosfera hamda milliy urf-odatlar ruhini ijro yoki tasvir orqali ifodalash san'atkorlik va estetik didni rivojlantiradi. Oqibatda, xalq og'zaki ijodi mazmunini chuqur o'zlashtirish bilan birga, o'quvchilarda boshqa fanlar bo'yicha egallanayotgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar ham mustahkamlanadi va ular ijodkorlik asosida o'zaro birlashib ketadi [25, B. 51-52.].

Xalq ijodining lingvistik yoki ma'naviy tarbiyaga qo'shadigan hissasi, aslida, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va hayotiy tajribani boyitishning keng ko'lamlı imkoniyatlari bilan uyg'unlashadi. Turli ertak, doston, topishmoq va maqollarda keltirilgan badiiy obrazlar, voqea-hodisalar hamda axloqiy xulosa va mulohazalar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning mustaqil qaror qabul qilishga bo'lgan rag'batini oshiradi. Quyidagi jarayon faqat til va adabiyot o'rganish bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy-psixologik holatlarda, kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni ham shakllantiradi. Mazkur asarlar asosidagi badiiy mazmun o'quvchilarni qat'iy me'yorlardan tashqarida fikrlashga, xodisalarga turli nuqtai nazardan yondashish va shuning asosida o'zgacha qaror yoki yechim topishga undaydi. Xalq ijodida ifodalangan turli tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar hayotiy tajribani boyitish va insoniy munosabatlar mohiyatini chuqur anglashga yordam beradi hamda axloqiy tarbiya bilan bir qatorda mustaqil fikr va harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy merosdan namunalar olish, zamonaviy interfaol usullar bilan uyg'unlashib, o'quvchilarga badiiy saviya va nutq mahoratini rivojlantirish yo'lida keng imkoniyatlar taqdim etadi. Bunda har bir mashg'ulotga ijodiy yondashish, ijobiy rag'bat va doimiy takrorlash zarur bo'lib, bolalarda ilgari shakllangan natijalarni yanada puxta mustahkamlash va yangi bosqichga olib chiqish osonlashadi. Shu jarayonda o'quvchilarning turli darajadagi salohiyati inobatga olinib, ularni o'zlariga mos topshiriqlarga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuvlar barcha bolalarda ham o'ziga xos yutuqlarni ta'minlaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimova N.Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi vositasida talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish // "International Scientific and Practical Conference "Actual Issues of Primary Education: Problems, Solutions and Development Prospects". – 2024. – 26-aprel. – B. 225-232. – DOI: 10.5281/zenodo.11062199.

2. Kalandarova F.T. Ta'lim-tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati // Xalqaro ilmiy jurnal "Nauchniy impuls". – 2023. – №13 (100), 1-qism. – B. 51–52.



INNOVATIVE
ACADEMY